Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida)	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilora Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALASI

Q.O.Tursunboyev

university of bussines and science

“Yashil iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi

qobuljontursunboyev5@gmail.com

Tel:+998993206257

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi masalalari yoritilgan. Kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi kuch sifatida ham ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan, maqolada kichik tadbirkorlik subyektlariga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ularning asosiy turlari va ularni bartaraf etish strategiyalari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda kichik biznesni iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining o'rni ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy tahdidlar, davlat qo'llab-quvvatlovi, tadbirkorlik, barqarorlik strategiyasi, huquqiy muhit.

Abstract: This article explores the issues related to ensuring the economic security of small business entities. Small businesses play a crucial role not only in economic growth but also in maintaining social stability. The article analyzes key threats to small businesses and presents strategies for mitigating them. The study also examines the role of Uzbekistan's state policy in supporting the economic security of small business entities.

Key words: small business, economic security, financial threats, state support, entrepreneurship, stability strategy, legal environment.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы обеспечения экономической безопасности субъектов малого бизнеса. Малый бизнес является не только важным фактором экономического роста, но и устойчивости общества в целом. В работе проанализированы основные угрозы, влияющие на малый бизнес, и стратегии по их минимизации. Также рассматривается роль государственной политики Узбекистана в обеспечении экономической безопасности малых предприятий.

Ключевые слова: малый бизнес, экономическая безопасность, финансовые угрозы, государственная поддержка, предпринимательство, стратегия устойчивости, правовая среда.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari har qanday zamonaviy iqtisodiyotning muhim tayanchi hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sish va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi, balki jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, hududiy rivojlanish va aholi daromadlarining oshishi uchun asosiy vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda global iqtisodiy tizimda ro'y berayotgan notinchliklar, geosiyosiy xavflar, pandemiyalar, raqamli xavfsizlikka tahdidlar, shuningdek, moliyaviy resurslarga kirishdagi muammolar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini jiddiy sinov ostiga qo'yimoqda. Ayniqsa, moliyaviy barqarorlik, soliq yuki, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va raqobatbardoshlik darajasi bu subyektlar faoliyatining barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois kichik biznesni iqtisodiy tahdidlardan himoya qilish, ularning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash masalasi dolzarb tus olmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati kichik biznes va tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini yengillashtirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qildi.

Bundan tashqari, “Yagona elektron platforma” orqali kichik biznesni davlat xaridlariga jalb qilish tizimi, biznesni boshlashdagi litsenziya va ruxsatnomalar sonini qisqartirishga qaratilgan islohotlar ularning institutsional himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan dalolat beradiki, iqtisodiy xavfsizlik – nafaqat davlat miqyosidagi ustuvor masala, balki har bir kichik biznes vakilining kundalik faoliyati, kelajakdagi barqarorligi va raqobatbardoshligiga



bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar, asosiy tahdidlar, ularni yumshatish strategiyalari va tegishli davlat siyosati chuqur tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi iqtisodiy nazariyada nisbatan yangi, ammo dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ushbu masalaga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ularning turli yondashuvlar, indikatorlar va baholash mezonlari asosida o'rganilayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi odatda "entrepreneurial risk management", "SME resilience" yoki "business continuity" tushunchalari bilan izohlanadi. Garchi ushbu atamalar to'g'ridan-to'g'ri "iqtisodiy xavfsizlik" atamasiga mos kelmasa-da, ular bir maqsad – kichik biznesni turli ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish g'oyasini ko'zlaydi.

Masalan, D. Smallbone va F. Welter kichik biznesni iqtisodiy beqarorlik sharoitida raqobatbardosh holatda saqlab qolish uchun tashqi muhitni monitoring qilish, muqobil moliyalashtirish manbalarini jalb qilish va ichki boshqaruv tizimini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [1]. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ham pandemiya davrida kichik biznesni iqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan qo'llab-quvvatlash choralarini keng ko'lamda o'rgangan bo'lib, bunda fiskal rag'batlantirishlar, soliq imtiyozlari va elektron xizmatlar orqali yengilliklar kiritishni taklif etadi [2].

Rossiyalik olim M.V. Demin kichik biznesni iqtisodiy xavfsizlik kontekstida o'rganar ekan, ularni moliyaviy va institutsional xavflarga nisbatan zaif qatlam deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu subyektlar uchun maxsus soliq rejimlari, kredit ta'minoti kafolatlari va raqamli transformatsiyaga asoslangan qo'llab-quvvatlash tizimi zarur [3]. Qozog'istonlik iqtisodchi R.A. Abdirayimova esa kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini baholashda "risk-indeks" yondashuvini ilgari suradi va bunda davlat siyosatining barqarorligi, tashqi muhitdagi o'zgaruvchanlik va subyektlarning kreditga bo'lgan kirish imkoniyati asosiy omil sifatida ko'riladi [4].

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu mavzuni so'nggi yillarda faol o'rganmoqda. Jumladan, A. Xaitov kichik tadbirkorlikning iqtisodiy xavfsizlik darajasini soliq yuki, kredit resurslariga kirish imkoniyati va huquqiy muhit bilan bog'liq holda izohlaydi [5]. Shuningdek, N. Nasirovning fikricha, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi – bu faqat tahdidlarga qarshi kurashish emas, balki ular uchun barqaror rivojlanish sharoitlarini yaratishdir. Bu esa me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va strategik rejalashtirishga asoslanishi lozim [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqotda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalarini aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun tadqiqotda nazariy tahlil, statistik tahlil, solishtirma tahlil, ekspert baholash, so'rovnoma va sistemali yondashuv usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning ilmiy yondashuvi quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Nazariy-metodologik asoslarni o'rganish. Birinchi bosqichda mavzuga doir mavjud nazariyalar, ilmiy yondashuvlar va tushunchalar tahlil qilindi. Xususan, "iqtisodiy xavfsizlik", "moliyaviy barqarorlik", "tadbirkorlik riski", "barqaror rivojlanish" kabi kategoriyalar chuqur o'rganildi. Xorijiy va mahalliy manbalar asosida kichik biznesning xavfsizlik holatini baholash indikatorlari – moliyaviy, institutsional, raqamli, tashqi muhitga bog'liqlik va boshqa mezonlar aniqlab olindi.

Empirik ma'lumotlarni yig'ish. Namangan viloyati misolida kichik biznes subyektlarining real holatini o'rganish uchun Davlat statistika qo'mitasi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, Iqtisodiyot va moliya vazirligi axborotlaridan foydalanildi. 2021–2024-yillarga oid kichik bizneslar soni, foydalanilgan kreditlar hajmi, subsidiyalar soni, soliq imtiyozlari miqdori va bankrotlik holatlari kabi ko'rsatkichlar yig'ildi. Namangan viloyatining Chortoq, To'raqo'rg'on, Namangan shahri, Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlaridagi kichik biznes egalari, bank vakillari hamda iqtisodchilar bilan ekspert suhbatlari olib borildi.

Solishtirma tahlil. O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizlikka doir yondashuvi MDH va rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Tahlil quyidagi mezonlarga asoslandi:

Kichik biznesga ko'rsatilayotgan moliyaviy yordam hajmi (YAIMga nisbatan);

Soliq yuki darajasi;

Davlat tomonidan kafilliklar va grantlar mavjudligi;

Bankrotlikka qarshi mexanizmlar;

Raqamli infratuzilma va huquqiy muhit.



Statistik va dinamik tahlil. Olingan statistik ma'lumotlar Excel va SPSS dasturlari orqali qayta ishlanib, trendlar va dinamikalar shaklida baholandi. Jumladan:

Kichik biznes subyektlari sonidagi o'zgarishlar;

Moliyaviy ko'rsatkichlarning (daromad, xarajat, foyda) yillik o'zgarishi;

Iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta'sir qiluvchi omillar – kreditga kirish imkoniyati, elektron xizmatlardan foydalanish va soliq yukining o'zgarishi.


Ekspert baholash usuli. Hududiy iqtisodchilar, bank menejerlari va kichik biznes egalari orasidan tanlab olingan 20 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, kichik biznes uchun eng muhim xavfsizlik tahdidlari aniqlab olindi. Baholash 5 ballik Likert shkalasi asosida amalga oshirildi (1 – mutlaqo muhim emas; 5 – juda muhim) (1-jadval).

1-jadval. Natijada eng muhim deb baholangan xavf omillari

Tahdid omili	O'rtacha ball
Kredit resurslariga cheklangan kirish	4.6
Soliq yukining yuqoriligi	4.3
Qonunchilikdagi o'zgaruvchanlik	4.1
Korrupsiya va byurokratik to'siqlar	4.0
Raqobat muhitining kuchayishi	3.8

Sistemali tahlil yondashuvi. Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi tizimli kategoriyalar – tashqi xavflar, ichki zaifliklar va davlatning kompensatsion roli nuqtayi nazaridan o'rganildi. Har bir omil bo'yicha sabab–natija bog'liqligi aniqlanib, tizimli yondashuv asosidagi qarorlar zarurligi asoslab berildi.

Tadqiqot asosan Namangan viloyati misolida olib borilganligi sababli, xulosalarni umumlashtirishda hududlararo tafovutlarni hisobga olish zarur. Bundan tashqari, statistik ma'lumotlarning ayrimlarida muqobillik darajasi past bo'lib, bu esa tahlil natijalarining noaniqlik darajasini oshirishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining soni (2021–2024)

Yuqoridagi 1-grafikda keltirilgan ma'lumotlar Namangan viloyatida 2021–2024-yillar davomida kichik biznes subyektlari sonining barqaror o'sishini aniq ko'rsatmoqda. 2021-yilda ularning soni taxminan 13,2 mingta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 17,4 mingtagacha oshgan. Har yili o'rtacha 1,4–1,6 mingta yangi subyekt tashkil etilgan bo'lib, bu holat tadbirkorlik faoliyatiga oid islohotlarning, ayniqsa moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq yengilliklari va huquqiy muhitning yaxshilanishi natijasi bo'lishi mumkin.


Shuningdek, "Yagona darcha" tizimi, bank kreditlariga oson kirish imkoniyati hamda mahalliy hokimiyatlar tomonidan inkubatsion markazlar faoliyatining kengaytirilishi ushbu o'sishni qo'llab-quvvatlagan omillardan hisoblanadi.



Grafik, shu bilan birga, kichik biznes subyektlari sonining yildan-yilga mutanosib sur'atda oshganini ko'rsatadi. Bu esa tadbirkorlik muhitida nisbatan barqarorlik mavjudligini bildiradi. Bunday izchil o'sish tendensiyasi iqtisodiy xavfsizlikning asosiy indikatorlaridan biri sifatida qaraladi, ya'ni kichik biznes muhitida ishonch mavjud va yangi subyektlar iqtisodiy tahdidlarga qaramay faoliyat boshlashga jur'at etmoqda.

Shu bilan birga, mazkur o'sish ortida yangi ehtiyojlar, masalan, moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, marketing xizmatlariga kengroq kirish hamda tashqi savdo imkoniyatlarini rivojlantirish zarurati ham yotganini anglatadi (2-rasm).


2-jadval. Tumanlar bo'yicha kichik biznes subyektlari soni (2024-yil)



2-rasm. Tumanlar bo'yicha kichik biznes subyektlari soni (2024-yil)

Yuqoridagi 2-grafikda 2024-yil holatiga ko'ra Namangan viloyatining besh tumani bo'yicha kichik biznes subyektlari soni taqqoslanadi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, Namangan shahri 4120 ta kichik biznes subyekti bilan yetakchi o'rinda turibdi. Bu holat hududda sanoat va xizmatlar sohasi, moliyaviy infratuzilma, transport aloqalari hamda mehnat bozori salohiyatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Aholi zichligi yuqori va markaziy hudud bo'lganligi sababli bu yerda iqtisodiy faoliyat yuritish imkoniyatlari kengroq. Shuningdek, bank, lizing, soliq xizmatlari hamda mavjud mijozlar bazasi kichik biznesning tez shakllanishiga zamin yaratgan.

Boshqa tumanlarda esa bu ko'rsatkich nisbatan past: Chortoqda – 2150 ta, Kosonsoyda – 1980 ta, To'raqo'rg'onida – 1740 ta, Yangiqo'rg'onida esa – 1670 ta. Mazkur tumanlarda kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilishi zarur. Jumladan, soliq imtiyozlari, kredit kafolatlar va biznes-inkubatorlar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Shu orqali hududiy iqtisodiy tengsizlikni yumshatish hamda umumiy iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish mumkin bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi (2021–2024)



Yuqoridagi grafikda 2021–2024-yillar davomida kichik biznes subyektlariga ajratilgan kredit hajmining dinamikasi ko'rsatilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, kreditlash hajmi yildan-yilga barqaror ravishda oshib bormoqda: 2021-yilda 980 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2045 mlrd so'mga yetgan, ya'ni qariyb 2 barobarga oshgan. Bunday o'sish kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash siyosatining faollashganini, tijorat banklari va davlat jamg'armalari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan resurslar hajmi ortganini anglatadi.

Bu ijobiy holat kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi uchun muhim omil hisoblanadi. Kredit hajmining ortishi – bu subyektlarning investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatining oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday o'sish bilan birga kreditlarning sifati, ya'ni ularning qaytarilishi, foiz stavkalari va garov mexanizmlari masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki ortiqcha kredit yuklamasi yoki noto'g'ri moliyaviy boshqaruv kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini izdan chiqarishi mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish, risklarni boshqarish va kafillik mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. 2024-yildan 2030-yilgacha kredit olgan kichik biznes subyektlari soni prognozi


	Namangan shahri	Chortoq	Kosonsoy	To'raqo'rg'on	Yangiqo'rg'on
2024	980	540	490	430	410
2025	950	510	460	400	380
2026	920	480	430	370	350
2027	890	450	400	340	320
2028	860	420	370	310	290
2029	830	390	340	280	260
2030	800	360	310	250	230

Yuqoridagi 1-jadvalda Namangan viloyatining besh tumani bo'yicha 2024–2030-yillar oralig'ida kredit olgan kichik biznes subyektlari soni prognoz ko'rinishida aks ettirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, barcha tumanlarda yil sayin kredit oluvchi subyektlar soni izchil kamaymoqda. Bu holat bir qator omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin: birinchidan, kredit shartlarining murakkablashuvi; ikkinchidan esa, biznes subyektlarining kredit olishga bo'lgan ehtiyoji yoki layoqatining pasayishi.

Masalan, Namangan shahrida 2024-yilda 980 ta subyekt kredit olgan bo'lsa, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkich 800 tagacha tushishi kutilmoqda, bu esa 18,4 foizlik kamayish demakdir. Xuddi shunday tendensiya Chortoq (540 → 360), Kosonsoy (490 → 310), To'raqo'rg'on (430 → 250) va Yangiqo'rg'on (410 → 230) tumanlarida ham kuzatilmoqda. Barcha hududlarda har yili o'rtacha 30 tagacha kredit oluvchi subyekt kamayishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu holat kichik biznes uchun iqtisodiy xavfsizlikda tahdidlar mavjudligiga ishora qiladi. Agar kredit olish imkoniyatlari cheklanayotgan bo'lsa, bu subyektlarning investitsion faoliyat yuritishi, modernizatsiya qilinishi va kengayishi uchun zarur moliyaviy resurslardan mahrum bo'lish ehtimolini oshiradi.

Shu sababli, mahalliy hokimiyatlar va moliyaviy muassasalar kreditlash siyosatini qayta ko'rib chiqishlari, ayniqsa barqaror va yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari uchun alohida moliyaviy paketlar ishlab chiqishlari zarur. Shuningdek, ushbu salbiy trendni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun kafillik fondlarini kengaytirish, foiz stavkalarini subsidiyalash va mikrokreditlar bo'yicha alohida dasturlar joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi (4-rasm).



4-rasm. 2024–2029-yillar oralig'ida Namangan viloyati tumanlarida kichik biznes subyektlari tomonidan soliq imtiyozlaridan foydalanuvchilar ulushining prognozi

Yuqoridagi 4-grafikda 2024–2029-yillar oralig'ida Namangan viloyati tumanlarida kichik biznes subyektlari tomonidan soliq imtiyozlaridan foydalanuvchilar ulushi prognoz ko'rinishida tasvirlangan. Grafikdan ko'rinadiki, barcha tumanlarda bu ulush barqaror ravishda oshib bormoqda. Bu esa tadbirkorlarning davlat tomonidan taklif etilayotgan yengilliklardan foydalanish faolligi ortib borayotganini anglatadi.

Eng yuqori o'sish Namangan shahrida kuzatilmoqda: 2024-yilda 45 % bo'lgan ko'rsatkich 2029-yilga kelib 53 % ga yetishi kutilmoqda. Bu holat shahardagi bizneslar yuridik xizmatlar, axborot texnologiyalari va soliq maslahati infratuzilmasidan keng foydalanayotganini bildiradi. Chortoq va Kosonsoy tumanlarida ham ijobiy trend mavjud bo'lib, besh yil ichida soliq imtiyozidan foydalanuvchilar ulushi mos ravishda 39 % dan 45 % ga va 36 % dan 41 % ga oshishi rejalashtirilgan. Bu esa soliq siyosati sohasidagi islohotlarning hududlarda ham samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, To'raqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlarida o'sish sur'ati nisbatan pastroq bo'lsa-da, bu hududlardagi kichik biznes subyektlarining yengilliklar bo'yicha xabardorlik darajasi ortib borayotganini anglatadi. Ushbu tumanlarda soliq imtiyozlaridan foydalanishni kengaytirish uchun davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar tomonidan axborot kampaniyalari, bepul seminarlar va soliq bo'yicha maslahat xizmatlarini kuchaytirish lozim. Shu orqali barcha hududlarda iqtisodiy xavfsizlikka xizmat qiluvchi moliyaviy yengilliklardan teng darajada foydalanish imkoniyati ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligi zamonaviy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning muhim omillaridan biridir. Xavfsizlik nafaqat tashqi tahdidlardan himoya, balki moliyaviy, soliq, huquqiy va axborot infratuzilmalarining mustahkamligi orqali biznesning uzluksiz faoliyat yuritishiga kafolat yaratishdir. Kichik biznes uchun iqtisodiy xavfsizlik – bu ularning kredit resurslariga, davlat yengilliklariga va raqobatbardosh muhitga kirish imkoniyati orqali faoliyatini barqaror davom ettira olishidir.

Namangan viloyati misolida olib borilgan amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining soni va kreditlash hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2021–2024-yillarda kichik biznes subyektlari soni 13,2 mingtadan 17,4 mingtaga, kreditlash hajmi esa 980 mlrd so'mdan 2045 mlrd so'mgacha yetgan.

Kichik biznesni iqtisodiy xavfsizlik bilan ta'minlashda yagona yondashuv yetarli emas. Bu borada har bir tuman uchun hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashtirilgan strategiyalar zarur. Ayniqsa, kredit siyosatini yumshatish, garovsiz moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va soliq yengilliklarini soddalashtirish orqali kichik biznesga ishonchli moliyaviy muhit yaratilishi lozim. Shuningdek, biznes subyektlarining raqamli xizmatlar va axborot texnologiyalariga moslashuvi ham xavfsizlik darajasini oshiruvchi muhim omildir.



Tahlillar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Davlat–biznes hamkorligini chuqurlashtirish maqsadida kichik biznes uchun maslahat xizmatlari va “bir darcha” tizimi kuchaytirilsin.

Hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun iqtisodiy jihatdan sust tumanlarda alohida qo'llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilsin.

Raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali kichik biznes subyektlariga elektron soliq tizimlari, kredit platformalari va onlayn grant dasturlarining ochiq va samarali ishlashi ta'minlansin.

Iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari asosida monitoring tizimi ishlab chiqilsin va doimiy ravishda yangilanib borilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smallbone, D., & Welter, F. (2001). The Distinctiveness of Entrepreneurship in Transition Economies. *Small Business Economics*, 16(4), 249–262.
2. ILO. (2020). Policy Brief: Supporting enterprises during the COVID-19 crisis. Geneva: International Labour Organization.
3. Демин, М.В. (2019). Экономическая безопасность малого бизнеса: угрозы и механизмы защиты. – Москва: Финансы и статистика.
4. Абдирайимова, Р.А. (2021). Малый бизнес и экономическая устойчивость: подходы к оценке рисков. – Алматы: Экономика и статистика, №2.
5. Хаитов А. (2022). Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, №3, 45–53.
6. Насиров Н. (2023). Tadbirkorlik subyektlarining xavfsizligini oshirishda davlat siyosati. *Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti*, №5, 27–34.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF–165-son (2022-yil 20-iyun) va Qarori PQ–14-son (2023-yil 17-yanvar).
8. Smallbone, D., & Welter, F. (2001). The Distinctiveness of Entrepreneurship in Transition Economies. *Small Business Economics*, 16(4), 249–262.
9. International Labour Organization (ILO). (2020). Policy Brief: Supporting enterprises during the COVID-19 crisis. Geneva: ILO Publications.
10. Демин, М.В. (2019). Экономическая безопасность малого бизнеса: угрозы и механизмы защиты. – Москва: Финансы и статистика.
11. Абдирайимова, Р.А. (2021). Малый бизнес и экономическая устойчивость: подходы к оценке рисков. – Алматы: Экономика и статистика, №2.
12. Хаитов А. (2022). Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, №3, 45–53.
13. Насиров Н. (2023). Tadbirkorlik subyektlarining xavfsizligini oshirishda davlat siyosati. *Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti*, №5, 27–34.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi PF–165-sonli Farmoni. Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va kichik biznes subyektlariga moliyaviy ko'makni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. www.lex.uz
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-yanvardagi PQ–14-sonli Qarori. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida. www.lex.uz
16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Rasmiy statistik byulletenlar. www.stat.uz
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklari hisobotlari to'plami. www.cbu.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>